

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2026 Vol. 1

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2026 Vol. 1

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR Shuhrat Sirojiddinov
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI Karomat Mullaxo'jayeva
MAS'UL KOTIB Ozoda Tojiboyeva
TAHRIR HAY'ATI Karl Rayxl (Germaniya) Isa Habibeyli (Ozarbayjon) Seyhan Tanju (Turkiya) Almaz Ulvi (Ozarbayjon) Benedek Peri (Vengriya) Vahit Turk (Turkiya) Teymur Kerimli (Ozarbayjon) Eunkyung Oh (Koreya) Nazef Shahrani (AQSh) Boqijon To'xliyev Muhammadjon Imomnazarov Bilol Yujel (Turkiya) Qosimjon Sodiqov Zulxumor Xolmanova Mustafa O'ner (Turkiya) Nurboy Jabborov G'aybulla Boboyorov Kimura Satoru (Yaponiya) Imran Ay (Turkiya) Aftondil Erkinov Nadir Mamadli (Ozarbayjon) Rashid Zohidov Otabek Jo'raboyev Bulent Bayram (Turkiya) Qo'ldosh Pardayev Nodirbek Jo'raqo'ziyev Oysara Madaliyeva Hilola Nazirova

MUNDARIJA	
MATNSHUNOSLIK	
Saidakbar Muhammadaminov Junglarning genezisi va regional xususiyatlari: adabiy to‘plamdan fatvolar majmuyiga qadar	4
Ozoda Tojiboyeva "Favoyid ul-kibar"dagi farqli baytlar xususida	23
Sohiba Madirimova Avaz O‘tar qo‘lyozma devonlari tavsifi	37
Təranə Verdiyeva, Fərhad Mirzəyev Klassik Şərq İrsinin Vizual Təqdimatında Or. 2265 "Xəmsə" Əlyazmasının Yeri və Nizami Gəncəvinin Mədəni Fəlsəfəsi	64
Gulzira G‘iyosiddinova Ojiz devoni qo‘lyozmalari tavsifi	77
LINGVISTIKA	
G‘aybulla Boboyorov Oltinko‘l bitiktoshlari: eski turkcha so‘zlarning o‘zbek tilida saqlanish holati	94
Jo‘ra Xudoyberdiyev Chig‘atoy tiliga oid ayrim mulohazalar	114
Tünzalə İsmayılova XIV – XV əsr qipçaq lüğətlərinə ümumi baxış	135

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOTOLOGY****Saidakbar Muhammadaminov**

The Genesis and Regional Features of Jong Collections: From Literary Anthology to Compendium of Fatwas 4

Ozoda Tojiboyeva

Regarding the Different Couplets in the Manuscript Sources of "Favoyid ul-kibar" 23

Sohiba Madirimova

Description of Avaz O'tar's Manuscript Divans 37

Təranə Verdiyeva, Fərhad Mirzəyev

The Place of the Or. 2265 "Khamisa" Manuscript in the Visual Representation of Classical Eastern Heritage and the Cultural Philosophy of Nizami Ganjavi (Artificial Intelligence-Based Analysis) 64

Gulzira Giyosiddinova

Description of the Manuscripts of Ojiz's Divan 77

LINGUISTICS**Gaybulla Boboyorov**

The Altin-Köl Runic Inscriptions: the State of Preservation of Old Turkic Words in the Uzbek Language 94

Jura Khudoyberdiev

Some Remarks on the Chigatai Language 114

Tunzale Ismayilova

General Overview of 14th-15th Century Kıpçak Dictionaries 135

LINGVISTIKA
LINGUISTICS**Oltinko'l bitiktoshlari: eski turkcha
so'zlarning o'zbek tilida saqlanish holati**G'aybulla Boboyorov¹**Abstrakt**

Bugungi kundagi 30dan ortiq turkiy tillar orasida eng ko'p tarqalgan tillardan biri o'laroq o'zbek tili eski turkcha – O'rxun-Enasoy bitiklari tilining meroschilaridan biri sanaladi. O'zbekcha bir tomondan eng eski turkcha yozma tilning izdoshi bo'lsa, ikkinchi tomondan esa turkiy tillarning 3ta yirik tarmog'i – qarluq, qipchoq, o'g'uzchani o'zida birlashtirgan til o'laroq bilinadi. Bundan deyarli bir yarim ming yillar oldin yozilgan eski turkcha bitiktoshlarda uchraydigan so'zlarning ko'pchiligi bugungi kunda ham o'zbekchada saqlanib qolgani kuzatilishi o'z-o'zidan bo'lmay, bu holat o'zbek tilining yuqorida aytib o'tilgan o'ziga xosliklari bilan bog'liqdir. Buni Enasoy (Yenisey) daryosi qirg'oqlaridan topilayotgan bitiktoshlar tilida uchraydigan so'zlarning ko'pchiligi o'zbekchada saqlanib qolgani ham ko'rsatib turibdi.

Ochqich so'zlar: *eski turkcha, o'zbekcha, O'rxun, Enasoy, bitiktosh, Oltinko'l.*

Kirish

Turk xoqonligi (552–744) o'tmishidan so'ylovchi O'rxun bitiktoshlarining ilk o'rnaklari – Qutlug' Eltarish xoqon, Tunyuquq, Kul-tegin, Bilga xoqonga atab tiklangan eski turkcha yozma yodgorliklar VII yuzyillikning so'nggi o'nyilliklari – VIII yuzyillik boshlarida o'rnatilgan bo'lib, Enasoy (Yenisey) bitiktoshlariga esa ulardan birmuncha keyinroq bitilgan deb qaraladi. Yuqorida sanab o'tilgan bitiktoshlar bo'yicha dunyoning o'nlab o'lkalarida ilmiy izlanishlar olib borilgan, o'zbek turk tilbilimchiligi ham bu borada ozmi-ko'pmi o'z ulushini qo'shgan. Biroq rus va yevropalik izlanuvchilar, shuningdek, turkiyalik, qozoq, qirg'iz kabi

¹ Boboyorov G'aybulla Bolliyeovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Antropologiya instituti.

E-pochta: gaybullah@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-3456-3410

Iqtibos uchun: Boboyorov, G. B. 2026. "Oltinko'l bitiktoshlari: eski turkcha so'zlarning o'zbek tilida saqlanish holati". *Oltin bitiglar* 1: 94-113.

qardoshlardan farqli o'laroq o'zbek tilchilari Enasoy bitiktoshlarini yetarlicha o'rganishmagan.

Turkiy tillar, ayniqsa, o'zbek tili o'tmishini o'rganish, tub turkcha so'zlar tilimizda nechog'lik saqlanib qolganini aniqlash uchun birgina O'rxun bitiktoshlarini emas, uning yondoshi bo'lmish Enasoy bitiktoshlari bo'yicha izlanishlar olib borish, ularda o'rin olgan so'zlar o'zbek tili bilan qanchalik yaqin-uzoqligini aniqlash kerak bo'ladi. Turk xoqonligi chog'i tilini o'zida qamrab olgan O'rxun bitiktoshlaridan farqli o'laroq birmuncha o'zgacharoq o'rtam – muhitda yaratilgan Enasoy bitiktoshlari ko'pincha mo'zoz toshlariga bitilgan esdalik yozuvlari bo'lib, ularda o'ziga xos atamalar, tushunchalar, yalpi olganda kundalik turmush bilan bog'liq bilgi – ma'lumotlar o'rin olgan. Ular orasida Yenisey daryosi qirg'oqlaridagi Abakan – Mingsuv (Minusinsk) botiqlaridagi tog' va tekisliklardan topilgan Oltinko'l bitiktoshlari ayriча ajralib turadi.

RF Xakasiya Respublikasi kungay – janubidagi Oltinko'l ko'li tegrasida, Abakan irmog'ining o'rta oqimi, o'ng qirg'og'ida aniqlanib, bugungi kunda Minusinsk shahridagi N. M. Martyanov nomli o'lkashunoslik muzeyi Ye-28, Ye-29 sonlari ostida saqlanayotgan ushbu Oltinko'l bitiktoshlari 1878-yili topilgan. 1890-yillari daniyalik tilchi V. Tomsen va rossiyalik V.Radlov tomonidan O'rxun bitiktoshlari o'qilib, eski turkcha yozma yodgorliklarni o'qish bo'yicha izlanishlar qizg'in tus olgach, bugungi kungacha o'tgan 100 yildan ortiq vaqt kesimida boshqa bitiklar singari Oltinko'l bitiktoshlari yuzasidan bir necha o'nlab ilmiy ishlar bosilib chiqqan. Ular orasida V. V. Radlov, S. Y. Malov, J. Kloson, S. G. Klyashtorniy, B. X. Batmanov, H. N. O'rquon, T. Tekin, I. L. Kizlasov, E. Aydin, N. Usuev, N. Bazilxan kabi o'nlab turk tilbilimchilari ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ularning Oltinko'l bitiklarini o'qish, o'chgan yoki yarim saqlangan so'z va atamalarni qayta tiklash, ochiq'lama berish, o'z tillariga o'girish kabi ishlarida yalpi o'xshashlik ko'zga tashlansa-da, ayrim so'zlar bo'yicha bildirilgan ko'zqarashlarda qarama-qarshiliklar borligi kuzatiladi.

Quyida biz ularning barcha qarashlarini keltirmasdan, birmuncha keyinroq bajarilgan izlanishlarga tayanib, o'z o'qish va ochiq'lamlarimizni bildirishga intilamiz (bitiktoshlardagi yozuvlarning chizmasini E. Aydin, R. Alimov, F. Yildirimga tayanib keltirmoqdamiz):

Bars ayrilma, hayhot!

6. Butimiz (ilohamiz) Umay, begimiz Ebiz Uya. Alp er o'z (kuchli askar yaqinimiz) bilan olti (nafar) qilmading, o'z (xos) otlarni o'zing bilan uch er (askar)ni olmading, hayhot. Ezincham-a, ko'zancham-a, ayrilma, yechilma (ajralma), O'girdim (u dunyoga qaytdim)".

7. Oltin So'nga-yishi (o'rmoni) keyigi (yovvoyi hayvonlari) ortgil, toshgil. Otuvchi – mergan (bizdan) Una Barsim ayrilib ketdi (o'ldi), hayhot!

8. To'rt inili (og'a-inili) edik, bizni (yer osti egasi) Erklik ayirdi, hayhot, er (askarlarim)ni sog'indim.

9. Er erdami (er-yigitlik fazilati) uchun, inim, akam uchun, yaqinlari (kuch-quvvati) bilan mangu (toshim)ni tikdilar".

Ochiqlamasi:

1. "*On ay : eltdi : ögüm-ä : kelürti : elimkä : erdäm üçün : men yirildim* – O'n oy eltdi (olib yurdi) onam. Keltirdi elimga, erdam (er-yigitlik fazilati) uchun men (yurtimdan) ayrilib ketdim".

Quyida Ye-29 sonli bitiktoshda keltirib o'tiladiganidek, eski turklarda ikkiqat xotin qornidagi bolasini "o'n oy ko'tarib yurishi" to'g'risida keng tarqalgan tushunchaning yana bir o'rnagini bu bitiktoshda ko'rib turibmiz. Har ikki bitiktoshda bu tushuncha o'zaro yaqin, biroq biroz boshqacharoq ko'rinishda keltirilgani ko'zga tashlanadi:

1) Ye-28 da: "*On ay : eltdi : ögüm-ä : kelürti : elimkä : erdäm üçün : yirildim* – O'n oy eltdi (olib yurdi) onam. Keltirdi elimga, erdam (er-yigitlik fazilati) uchun men (yurtimdan) ayrilib ketdim".

2) Ye-29 da: "*on ay elt<d>i : ögüm : oğlan : tuğdum : erin : ulğatim* – O'n oy eltdi (olib yurdi) onam, o'g'lon tug'ildim er (yigit) bo'lib ulg'aydim".

Oltinko'l bitiktoshlaridan birinchisida tug'ilish bilan bog'liq tushuncha "onam keltirdi" deb tushuntirilsa, ikkinchi bitiktoshda bu holatga "o'g'lon (bo'lib) tug'ilish" deb urg'u berilmoqda. Har ikki tutumda ham bitik yozuvchilarining bu tushunchani to'g'ridan-to'g'ri emas, badiiy bir yo'riq (usul) bilan ko'chma ma'nodagi so'zlar bilan tilga olganliklari bundan ming yillar oldin ham ota-bobolarimizning kishilik jamiyatida tug'ilish, yashash va o'lim bilan bog'liq holatlarni inja so'zlar orqali anglatishga intilganliklarini ko'rsatadi.

Ye-28 va Ye- 29 sonli bitiktoshlardagi "o'gum" so'zi "ona" anglamidagi eski turkcha so'z ekanini Kul-tegin, Bilga xoqon bitiktoshlarida "o'gum El-bilgä qatun" (onam El-bilga xotun) deb uchraydigan bilgilar ko'rsatib turganidek [Абдурахмонов, Рустамов

1982, 108; User 2009, 252], o'zbek tilida "o'ksiz o'z kindigini o'zi kesar" degan ota-so'zida "o'k" so'zi "ona" o'rnida haligacha saqlanib kelayotgani anglashiladi.

Ushbu bitik boshlanmasidagi so'nggi so'z "yirildim" bo'yicha aniq bir to'xtamga kelinmagan. Ayrim izlanuvchilar uni "ajraldim" yoki "ayrildim" deb ochiqleydilar [Aydin, Alimov, Yildirim 2013, 83]. Biroq bitta bitiktoshning o'zida "ayrilmoq" fe'li ham "*adbyryl-* - ayrilmoq (u dunyoga ketmoq, o'lmoq, yaqinlarini tashlab ketmoq), "*yiril-* ayrilmoq" angamlarida qo'llanilgan deyishga to'siq bo'ladi. Bu so'z bilan birga kelgan so'zlarni yalpi olib qarab, uni "yurtimdan ayrilib ketdim", "bir sira yurtimdan uzoqda bo'ldim" deb o'girish to'g'riroqqa o'xshaydi. Boshqa tomondan esa bu so'zni "*ay erildim* – oy (kabi) erildim (kamaydim, ozaydim) deb ochiqlab, "Devonu lug'atit-turk"da "erildi: *tam erildi* – devor rahnalandi, tepa qismi nuradi. ... Shuning kabi to'lin oy, oy oxiriga qadar asta-sekin kamaya borishiga ham "ay erildi" deb keltirilgan bilgi bilan tenglashtirish to'g'riroqqa o'xshaydi [Koshg'ariy 1960, 268–269].

2. "*Elim : okunching-a : qalin : yaqiqa : qiymatin : tegipan : adrildim-a : yita* – Elim o'kinchiga! Qalin yog'iyga qiymasdan (borib) tegibon, ayrildim, hayhot!".

"Elim o'kunching-a!" – bu so'z turkiy tillarda, ayniqsa, o'zbek tilida "pushaymonlik" anglamida saqlangan "o'kinch" so'zi bilan bitta negizdan. Bu yerda "elim" so'zi "elim, yurtim, davlatim" degan angamlarda ishlatilib, "o'kinching-a" deb urg'u berilishi marhum Bo'rt Una Barsning o'limi el-yurti uchun katta yo'qotish ekanini ko'rsatmoqda. Bitiktoshdagi *qalinyaqi* "qalinyagi" so'z birikmasidagi "qalin" so'zi "qalin yov, ko'p dushman" anglamida "yov"ning sifatini bildiradi. Shunga o'xshash so'z birikmasi boshqa bitiktoshlarda "қадыр яғи" (ayovsiz yov) ko'rinishida uchraydi. Keyingi *qiymatin* "qiymatin" so'zini ayrim izlanuvchilar "qaymasdan" (qaytmasdan) deb o'giran. Bu yondashuv bir tomondan to'g'ridek ko'rinadi. Biroq, "qaytarmoq, teskariga, ortga burmoq" fe'li eski turkchada "qadir-" ko'rinishida uchraydi. Bitiktoshlar yozilgan chog'larda o'rta asrlarda bo'lgani kabi bugun "y" o'laroq ishlatiladigan undosh so'zboshi, so'z o'rtasi va so'z so'nggida "d" o'laroq qo'llanilgan [DTS 1969, 403]. "Devonu lug'atit-turk" va "Qutadg'u bilig"da "qaytmoq" anglamida "qay-" fe'li ham uchraydi, biroq XI yuzyillikdan to'rt yuz yilcha oldin bu fe'l shu ko'rinishda qo'llanilgan deya olmaymiz [DTS 1969, 406].

Boshqa tomondan esa bu so'zni ayrim turkiy tillarda, ayniqsa, Onado'li turkchasi va o'zbekchadagi "*qiymoq* – ayamaslik, rahmi kelmaslik; rozilik bermoq, qurbon qilmoq, yo'q qilishga botinmoq;

kesmoq, ziyon yetkazmoq, o'ldirmoq" kabi so'zlarga boshlama bergan fe'l bilan tenglashtirsa bo'ladi. Ye-28 bitiktoshida "qiymasdan" ko'chma ma'no kelganini turkiy tillarda, ayniqsa, o'zbek tilida "ko'zi qiymadi" (biror ishni tashlab qo'yishga ko'ngil bo'lmasligi) degan ko'chma ma'noli so'z birikmasi borligi ham qo'llab-quvvatlaydi. Bu so'zning "qalinyog'iy" so'z birikmasidan kelishi ham ko'zqarashimizni kuchaytiradi. Undan keyingi "tegipan" (tegibon, tegib) so'ziga esa "tegmoq" fe'lining ravishdoshi deb qaraladi.

3. "*İniñizkä: eçiñizkä: ingänyüki: eld<ä>: tüşürtiñiz* – Iningizga, akangizga ingan tuya yuki (boylikni) elga (keltirib) tushirdingiz".

"Iningizga, echingizga (akangizga)" ko'rinishidagi ushbu qo'shaloq so'z o'zbek tilidagi "og'a-iningizga" so'zining o'rni almashgan ko'rinishini eslatadi. Turkiy tillarning ko'pchiligida – o'zbekcha, qozoqcha, qoraqalpoqcha, qirg'izcha va yana bir necha tillarda "ini" so'zi saqlanib qolgan bo'lsa-da, "echi" (aka) so'zi birmuncha unutilgan. Kultegin, Bilga xoqon bitiktoshlarida "(a)nta kisra inisi (e)chisin teg qil(i)nmad(u)q (e)r(i)nch" – undan keyin inisi akasidek qilinmagani uchun, chamasi" degan bilgidan bu so'z "aka" (tug'ishgan) anglamidagi eski turkcha so'z ekani anglashiladi [User 2009, 248]. "Devonu lug'atit-turk"da "ichi [içi] – yoshi katta birodar, aka" deb ochiqlanishi ham bu qarashni kuchaytiradi [Кошғарий 1960, 114].

"Ingan yuki" so'z birikmasidagi "ingan" so'zi ming yil oldingi yozma manbalarda va bugungi turkiy tillarning bir nechasida "urg'ochi tuya"ni bildiradi. "Devonu lug'atit-turk"da "*iñän* – urg'ochi tuya" [Кошғарий 1960, 142]. Keyingi so'z *XYŋ* (*ild*) deb yozilgan bo'lib, uni *eld<ä>* deb o'qimasa biror anglam – ma'no chiqmaydi [Aydin, Alimov, Yıldırım 2013, 83]. Shuningdek, "*ingän yüki: eld<ä>: tüşürtiñiz* – ingan tuya yuki (boylikni) elga (keltirib) tushirdingiz" deb o'qilgandagina bu yerda bitikchilar nima demoqchiligi anglashiladi. Bu yerda bitiktosh egasining elga, davlatga qilgan yaxshiliklari birma-bir aytib o'tilgani ko'zga tashlanadi.

4. "*Yerdäki bars tegim-ä erdämligim-ä bökm[ädim]* – Yerdagi bars tegim (urug'im)-a, erdamligimga bo'kmadim (to'ymadim)".

Izlanuvchilar "Yerdagi bars tegim-a" so'z birikmasini "Yer yuzidagi bars urug'im" deb o'girar ekan, marhumning kelib chiqishini "bars" (qoplon) deb atalgan etnonim bilan bog'lab, "teg" so'zini "tag, urug', nasl" so'zlari bilan tenglashtiradilar. Shu yo'sinda bitiktoshda so'z yuritilgan kishi bars urug'idan bo'lganiga urg'u beriladi. Eski turk bitiktoshlari va "Devonu lug'atit-turk"da shu ko'rinishda uchramaydigan "teg" (tag, tub, asos) so'zi forschadan o'zlashgan

deb qaraladi [O'TIL 2008, 633]. Ayrim izlanuvchilar esa bu so'z eski turkcha ekani va "tegin" (shahzoda) so'zi uchun negiz bo'lganini ilgari suradilar. "Tegin" atamasi bitiktoshlarda uchrashidan kelib chiqib, "teg" so'ziga ancha eski so'z deb qarab, buni 682-691-yillari Turk xoqonligini boshqargan Eltarish xoqonning kenja o'g'li Kultegin o'rnagida ko'ra olamiz.

5. "Atsar alp : ertiñiz-ä tutsar küç : ertiñiz-ä : inilig Bört : Una Bars : adrilm<a> ayitu – Otsa alp edingiz-a, tutsa kuch edingiz-a. Inili Bo'rtta Una Bars ayrilma, hayhot!".

"Atsar alp: ertiñiz-ä – Otsa alp edingiz-a" deya kuyinib so'ylangan bu so'zlar orqali ov qilganda – o'q otganda alp kuchli edingiz deyilmoqda. Keyingi so'z birikmasida "tutsar küç : ertiñiz-ä – tutsa kuch edingiz-a" deyish bilan marhumning tirikligida "o'ljani tutsa kuchli, qudratli" bo'lganiga urg'u berilmoqda. Bu yerdagi so'nggi so'zni *adrilm<a>* "ayrilma" deb o'qish esa biroz tortishuvli, chamasi bitik yozuvchilari bu yerda yanglishuvga yo'l qo'yishgan.

6. "Butumuz Umay begimiz: Yebiz Uya: Alp Yer: özin: alti qilmadiñ: özlük at özin: üç erig almadıñ: yita: ezinçüm-ä küzünçüm-ä: adrılma: seçlinmä: ögürdüm – Butimiz (ilohimiz) Umay, begimiz Ebiz Uya. Alp er o'z (kuchli askar yaqinimiz) bilan olti (nafar) qilmading, o'z (xos) otlarni o'zing bilan uch er (askar)ni olmading, hayhot. Ezincham-a, ko'zancham-a, ayrilma, yechilma (ajralma). O'girdim (u dunyoga qaytdim)".

"Butumuz Umay" so'z birikmasiga ayrim izlanuvchilar ayri-ayri tushuncha deb qarab, "butu" so'zini "bo'ta – tuyaning bolasi", keyingisini esa eski turk inonch tizimidagi iloha Umay bilan bog'lab tushuntirishgan [Aydın, Alimov, Yıldırım 2013, 83]. I. V. Kormushin esa bu so'zlari "uqimiz Umay – ilk urug' onamiz Umay" deb ochiqlagan [Кормушин 1997, 81]. Umayni ilohiy borliq deb tushungan turkiy ellar Umay yoki Umay onani "kishi o'g'illari" (inson bolalari) uchun qarindosh, urug' deb bilishmagan. U eski chog'larda bo'lgani kabi yaqin yuziilliklargacha bosh yaratuvchi – Tangridan keyin turuvchi tashqi dunyo bilan bog'liq tushuncha bo'lgan. Shuning uchun har ikki izlanuvchining qarashlariga qo'shilish qiyin. "But" so'zi ancha eski chog'lardayoq "but, sanam, sig'inishda ishlatiladigan tabiat usti borliq" deb tushunilgani "Devonu lug'atit- turk"da "but – kattalarning o'g'il-qizlari peshonalariga taqiladigan har bir qimmatbaho feruza tosh" keltirilishi ham bunga kichik bir ulgi – o'rnak bo'la oladi [Кошғарий 1963, III, 131].

Bilamizki, har qanday tushuncha biror narsa yuzasiga yozilayotganda bir-birini to'ldiradi, atoqli otlar oldidan ko'pincha

unga yuklangan sifat keladi. Ushbu so'zlar bir-biriga bog'liqligini ulardan keyin kelgan "begimiz Ebiz Uya" so'z birikmasi ham ko'rsatib turibdi. Boshqalar tomonidan "Biz Uya" deb o'qilgan atqli otni "Ebiz Uya" deb qarar ekanmiz, eski turklarda "Biz" so'zi biror atama o'laroq yozma manbalarda uchramasligiga tayandik.

Ye-28 bitiktoshidagi "*Alp er özin: altı qılmadiñ : özlük at özin: üç erig almadıñ*" – Alp er o'z (kuchli askar yaqinimiz) bilan olti (nafar) qilmading, o'z (xos) otlarni o'zing bilan uch er (askar) ni olmading" so'zlari ochiqlamasi bo'yicha ham turlicha qarashlar bildirilgan. E. Aydin esa "Kuchli, qahramon askarning kendisini (o'zini) yoqalatmadim. Xos otlarning kendisini (o'zini) va uch askarni olmading" deb o'girar ekan, *özin* "o'zin" so'zini "kendisining (o'zining)" deb, *altı qılmadiñ* so'z birikmasidagi *altı*ni esa *aliti* deb o'qib, unga "almaq" (olmoq) fe'lining bo'lishsiz shakli deb qaragan, shu yo'sinda *aliti qılmadiñ*ni "yoqalatmading (ushlatmading)" o'laroq ochiqlagan.

Izlanuvchi keyingi so'zlarni I. V. Kormushin va boshqalar kabi "*özlük at özin : üç erig almadıñ*" – o'z (xos) otlarni o'zing bilan uch er (askar)ni olmading" deb o'giran [Aydin, Alimov, Yıldırım 2013, 83 – 84]. Uning ayrim ochiqlamalariga qo'shilgan holda, Kormushinning ushbu satrdagi *altı* va *üç* so'zlarini sanoq sonlar bilan bog'lab, ular orasidagi uyg'unlik borligiga urg'u berishini to'g'ri deb qaradik [Кормушин 1997, 84 – 85]. Bizningcha, uning bu qarashlari o'zini oqlaydi. O'rxun–Enasoy bitiktoshlarida biror so'z tizimi (jumla) qurilar ekan, unga ko'rkamlik – badiiy bo'yoq berilib, son va sifatlar uyg'unligini saqlashga urg'u qaratilgani ko'zga tashlanadi.

Boshqa tomondan esa *özin* "o'zin" so'zi "o'zining" deb o'girish, bu yerda qaratqich yoki tushum kelishigini ko'rish birmuncha tortishuvli. Eski turkchada "-un / yn", "-in / ын" qo'shimchalari ko'pincha vosita kelishigi "bilan" o'rnida qo'llanilganidan kelib chiqilsa, Ye-28 bitiktoshida bitta so'z birikmasida ikki marta uchraydigan "o'zin" so'zini "o'zi bilan" deb o'girish to'g'riroq bo'ladi. O'rxun bitiktoshlarida "kendi" so'zi singari "o'z" olmoshi bitiktoshlarda "o'zlik", ma'naviy borliq, "o'zak" angamlarida ham keladi [User 2009, 180]. "Devonu lug'atit- turk"da esa "o'z [öz] – o'z, o'zi; yaqin; ichki a'zolar; o'zak; ruh" deb ochiqlanadi [Кошғарий 1960, 80 – 81].

Keyingi so'z birikmasi – "*özlük at özin*" – o'z (xos) otlarni o'zing bilan" deb o'girilar ekan, bir necha o'rnaklarga tayanilgan. "O'z" so'zi bilan ot yasovchi "-luk" qo'shimchasi birikib, yasalgan bu so'z O'rxun bitiktoshlarida ko'pincha "o'zluk at" (o'ziga tegishli

ot, xos ot), ayrim o'rinlarda esa "o'zluk" ko'rinishida urushlarda minilgan ot anglamida keladi. Bilga xoqon bitiktoshidagi "o'zluk atin adg'irin" (xos otini, ayg'irini), Kulicho'r bitiktoshidagi "o'zluki, bo'z at erti" (xos oti bo'z ot edi), "o'zlukin binip o'playu tegip uch erig sanchdi – o'z (xos) otining minib ho'plab (sakrab) tegib, uch er (askar)ni yanchdi" singari bilgilar buni ko'rsatib turibdi [User 2009, 298]. Qizig'i shundaki, oradan necha yuzyilliklar o'tganiga qaramay, "Devonu lug'atit-turk"da ham shu anglamda kelgan: "o'zluk – xususiy ot. Odamning o'ziga xoslangan har narsaga ham bu so'z qo'llanadi" [Кошғарий 1963, III, 443].

Undan keyingi so'z birikmasi "ezinçüm-ä küzünçüm-ä: adrılma – ezincham-a, ko'zancham-a, ayrılma" so'zlari bo'yicha tilbilimchilar tomonidan bildirilgan qarashlarga unchalik qo'shilib bo'lmaydi. Birinchidan, E. Aydin bu so'zlarni "iztirobim va qo'ruvchim" deb o'girar ekan, shunga o'xshash so'z va atamalarning biror yozma manbada uchrab-uchramasligiga tayanmaydi [Aydin, Alimov, Yıldıırım 2013, 84]. V. V. Radlov va S. Y. Malov o'girmalarida "urf-odatlarim va istagim" deb keltirilganiga urg'u bergan I. V. Kormushin bu so'zlarni *äzinçüm-ä közünçim-ä* deb o'qiydi va "ey mening o'ljam, ey mening xazinam" deb o'giradi [Кормушин 1997, 81–85]. Unga ko'ra, Yenisey bitiktoshlarini birinchilardan bo'lib o'qib chiqqan ushbu tilchilarning qarashlari ham, taniqli turkshunos J. Klosning ikkinchi so'zni "küzünç" o'laroq o'qib, uni eski uyg'urcha "küsünç" (istak) so'zining biroz yanglish yozilishi deb ochiqlashi ham o'zini oqlamaydi. Undan ko'ra bu so'zni eski turkcha "közünç" (xazina) so'zi bilan tenglashtirish to'g'riroq bo'ladi. Bu so'z eski uyg'urcha matnlarda shu anglamda uchraydi [DTS 1969, 321]. Shuningdek, I. V. Kormushin birinchi so'z – "ezinçüm"ni eski turkcha "ezmāk" (ezmoq, shilmoq, qirmoq) fe'li bilan bog'lab, "shilib olingan o'ljam" deb ochiqlaydi [Кормушин 1997, 85].

Bu kabi yondashuvlarning barchasi bir qarashda birmuncha to'g'ridek ko'rinadi. Biroq Ye-28 sonli bitiktoshning to'liq matni ko'zdan kechirilsa, unda so'z ko'proq bitiktosh egasi – marhumning tirikligida qilgan ezgu ishlari, ovchilikda qo'lga kiritgan yutuqlari to'g'risida borayotgani anglashiladi. Keyingi satrlarda "o'rmon kiyiklari (yovvoyi hayvonlari) sonining ortishi, to'lib-toshishi (ko'payishi)" uchun alqov aytilganini ko'ramiz. Bu esa "ezinçüm-ä közünçüm-ä" so'zlari o'zaro uyqash ekani, ularda qandaydir ov hayvonlari bilan bog'liq istak so'z aytilmaganmikan degan qarashni keltirib chiqaradi. Bu yerda "ezin" va "ko'zun" kabi hayvon otlariga eski turkcha kichraytirish (erkalatish) uchun qo'shib aytilgan

“-chīm / chim”, “- chum / chym” qo'shimchalari bilan bog'liq bir tutum kuzatilmayaptimikan? Oltinko'l bitiktoshida marhum ovlagan hayvonlar bilan bog'liq so'z va atamalarga bir necha bor to'xtalib o'tilganiga duch kelinadiki, bu esa bizning bu qarashimizni birmuncha kuchaytiradi.

“Devonu lug'atit turk”da “*kuzun* [küzün] – chumchuq ovlashda foydalaniladigan bir turli kalamush, qo'shoyoq hayvoni ham shunday ataladi” deb ochiqilanadi [Кошғарий 1960, 384]. O'zbek tili va uning shevalarida, shuningdek, turkiy tillarning bir nechasida “*ko'zan* [közän]” mo'ynali hayvon turlaridan biri uchun qo'llaniladi. O'zbek tilining ochiqklamali so'zligida “*olako'zan* – suvsarlar oilasiga mansub, mo'ynali yirtqich sutemizuvchi hayvon; “*sassiqlako'zan* – suvsarlar oilasiga mansub, qimmatbaho mo'ynali yirtqich jonivor” deb keltiriladi [O'TIL 2006, 105; O'TIL 2008, 458].

7. “*Altun: So'ja yis: keyiki: artg'il tashg'il atdaçi Una Barsim adriļu bardī: yīta* – Oltin So'nga-yishi (o'rmoni) keyigi (yovvoyi hayvonlari) ortgil, toshgil. Otuvchi (bizdan) Una Barsim ayrildi (o'ldi), hayhot!”.

Ushbu satrdagi “*Altun: So'ja yis: keyiki: artg'il tashg'il* – Oltin So'ngayishi (o'rmoni) keyigi (yovvoyi hayvonlari)” so'z birikmasidagi “Oltin So'ngayish”ni ayrim izlanuvchilar yer oti – toponim deb qarab, uni Abakan – Mingsuv (Minusinsk) botig'idagi So'ngayish o'rmonli tog'lari bilan tenglashtirishgan. S. Ye. Malov esa ushbu so'z birikmasidagi “yish”ni eski turkcha “yash” (yosh) so'zi bilan bog'lab, “*Altun So'ja yis keyiki* – Oltin o'rdaklar va yosh kiyiklar” deb o'giran edi. Biroq keyingi izlanishlar bu so'z birikmasini “Oltin So'ngayishi (o'rmoni) keyigi (yovvoyi hayvonlari)” deb o'qib, undan keyingi “artg'il, tashg'il” so'zlari orqali bitikchilar o'rmonli tog'dagi yovvoyi hayvonlar ko'payib, ortib, to'lib-toshishiga urg'u berganini ko'rsatdi. To'nyuquq bitiktoshida “*kiyik yeyu tabishqan yeyu o'lurur ertimiz* – kiyik (yovvoyi hayvonlarni yeb, tovushqon (yovvoyi quyon) yeb, o'tirar edik (yashardik)” degan bilgiler, “Devonu lug'atit-turk”da “*keyik* – ov hayvonlari; yovvoyi; kiyik; tog' echkisi” deb ochiqilanishi ko'zda tutiladigan bo'lsa, Ye-28 sonli bitiktoshidagi “*keyik*” so'ziga “ov hayvonlari” deb qarash to'g'ri bo'ladi [User 2009, 219 – 299; Кошғарий 1963, III, 182].

Oltin So'nga atamasidan keyingi so'z – “yish” so'zini ko'pchilik izlanuvchilar “o'rmonli tog'” deb o'giran ekan, bu so'zning To'nyuquq, Kultegin va Bilga xoqon bitiktoshlarida Oltoy tog'larining “*Altun-yish*” deb tilga olinishi, eski uyg'urcha matnlarda “*yish uzä yash o't ko'rupän* – tog' vodiysida yashil o't ko'rubon” ko'rinishida kelishi, “Devonu lug'atit turk”da esa bu so'z “yuqorilik, balandlik” deb

ochiqlanishini o'rnak ko'rsatadilar [User 2009, 147; DTS 1969, 268; Кошғарий 1963, III, 9]. Bu so'z bugungi turkiy tillarning ozchiligida, tuva, xakas, oltoy-kishi turklarida saqlanib qolgan. O'zbek tilidagi "zich – ko'p; tig'iz; qalin" so'zining eski turkcha "yish" (qalin o'rmon, zich o'rmonli tog') so'zi bilan bog'liqligi bor-yo'qligini tekshirib ko'rish kerak bo'ladi.

So'nggi "artg'il", "tashg'il" so'zlarini eski turkcha "artmaq – ortmoq, ko'paymoq", "tashmaq – toshmoq (suv), o'zanidan oshmoq" o'rnagida ochiqalay olamiz [User 2009, 176 – 200; Koshg'ariy 1963, II, 20; Koshg'ariy 1963, III, 430].

Undan keyingi "atdaçi Una Barsim adrilu bardī: yīta – Otuvchi – mergan (bizdan) ayrilib ketdi (o'ldi), hayhot!" so'zlaridagi "atdachi"ni "otuvchi" (mergan) deb ochiqlash o'zini birmuncha oqlaydi. "Devonu lug'atit-turk"da bugungi kunda qo'llanilayotganidek "atmaq" (otmoq, o'q otmoq, tashlamoq, tong otmoq) kabi anglamlarda kelgan "-at- (-ot) fe'liga eski turkcha -dachī sifatdoshi qo'shilib, "atdachi" (otuvchi, mergan) so'zi yasalgan deb qaraladi [Кошғарий 1960, 181]. Shu yo'sinda bitik o'rnaturvchilar marhum Una Bars (Bo'rta Una Bars) tilidan u o'lgach, Oltin So'ngayish deb atalgan o'rmonli tog'dagi ov hayvonlarining soni ortib, toshib ko'payishi, endi ularni otadigan ovchi yo'qligi, vafot etganiga urg'u beriladi. Demak, bu so'zlarning marhum ovchi tilidan aytilishi o'z-o'zidan bo'lmay, eski turklarda barcha yaratiq – jonivorlarning quti (ruhi) bo'ladi, shuning uchun ularning ruhidan kechirim so'rash kerak degan tushuncha ushbu bitiktoshda o'z ko'rinishini topgan deya olamiz.

8. "tört iniligü: ertimiz: bizni: Erklig: adirtī yīta ersädim-ä – To'rt inili (og'a-inili) edik, bizni (yer osti egasi) Erklik ayirdi, hayhot, er (askarlarim)ni sog'indim".

Ayrim izlanuvchilar ushbu satrdagi "tört iniligü" so'z birikmasini "to'rt tug'ishgan (og'a-ini), inilik" deb o'g'irgan bo'lsalar [Aydın, Alimov, Yıldırım 2013, 84], ayrimlar uni "tört(i)nl(i)gü – to'rtovlon" deb ochiqlagan [Kormushin 1997, 88].

Bitiktoshda "og'a – ini"larni bir-biridan Erklik ayirganiga urg'u beriladi. Eski turklarda yerosti dunyosi egasi deb bilingan "Erklig" bugungi kunda Sibir – Oltoy turklarida "Erlik" o'laroq saqlanib qolgan. Demak, elini o'kinmasin, iztirob chekmasin deya "qalin yog'iy – kuchli dushmanga" qarshi borib, ularga yetib borib, savashib o'lim topgan Elig Bo'rt O'pa Barsning "er-yigitlik erdami"ni eslab, inisi, akasi, yaqinlari tomonidan unga "mangu tosh" tikkanliklari aytilar ekan, yer osti egasi Erklik to'rtovlon orasiga ayriliq – o'lim solgani urg'ulanadi. Shu satrdagi so'nggi "ersadim"ni "er (askarlarimni)

2. elimdä: tört: tegzindim: erdämim üçün: İnançu Alp
3. erdäm[lig] bulsar: bodun: esirkäyü ermädi: erinçim:
ekizim-ä
4. erdäm b[ol]sar: bodunuğ: erk: bodunuğ: atım: erän uluğ
erdämg: batur men
5. quyda qadaşıma: qunçuyuma: adrılı: bardim: män:
oğlumqa: bodunumqa: bökmädim
6. säkiz qırq: yaşıma:
7. er erdäm üçün töpüt qanqa: yalabaç: bardim: kelmädim
8. er erdäm bolsar: andağ ermiş: esin<i> men: altun
qapır[çaqqa kir]tim.

O'zbekcha o'girmasi:

1. O'n oy eltdi (olib yurdi) onam, o'g'lon tug'ildim er (yigit) bo'lib ulg'aydim.
2. Elimda to'rt (tomoniga) tegdim (yetib bordim). Erdamim (er-yigitlik fazilatim) uchun. Inanchu Alp
3. erdamlik topsa buduni uni esirgamadi (asray olmadi). Qanday achchiq! Egizim-a!
4. Erdam bo'lsa budun (ham) kuchli budun (bo'lur). Otim Eran, Ulug' erdamlik (fazilatli) Botur men.
5. Qishloqda qarindoshimdan, xotinimdan ayrildim men. O'g'illarimga (bolalarimga), budunimga bo'kmadim (to'ymadim)
6. O'ttiz sakkiz yoshimda
7. Er (yigitlik) erdami uchun Tibet xoniga yalavoch (elchi) bo'lib bordim, (qaytib) kelmadim.
8. Er (yigitlik) erdami bo'lsa andoq ermish. (Qanday) achchiq! Men oltin qabirchoqqa (tobutga) kirdim (qaytish bo'ldim).

Ochiqlamasi:

1. “on ay elt<d>i: ögüm: oğlan: tuğdum: erin: ulğatim – O'n oy eltdi (olib yurdi) onam, o'g'lon tug'ildim er (yigit) bo'lib ulg'aydim”.

Bu yerda “Onam qornida 10 oy ko'tarib yurdi” deb aytilar ekan, uning negizida turkiy ellarda chaqaloqning 9 oydan bir necha kun oshib, o'ninchi oyga o'tib tug'ilishi bilan bog'liq tushunchalar yotishini ko'ramiz. Bu so'z birikmasidagi deyarli barcha so'zlar turkiy tillarning ko'pchiligida, ayniqsa, o'zbek tilida yaxshi saqlanib qolganiga ko'zimiz tushadi. Ular orasida biroz eskirgandek ko'rinsada, “elt<d>i – eltdi” so'zi o'zbek tilida “eltmoq, eltib bermoq, olib bormoq, olib borib bermoq” angamlarida uchrashini aytib o'tish

kerak.

Ye-29 sonli bitiktoshda bu so'z yozilayotganda bitikchilar "d" harf birikmasini tushirib qoldirishgan ko'rinadi: **𐰃𐰪𐰇𐰝𐰚𐰚𐰚** – o'n ay elti "o'n oy eltdi". Izlanuvchilar Ye-28 sonli bitiktoshda shu so'z bilan o'xshash **𐰃𐰪𐰇𐰝𐰚𐰚𐰚** – o'n ay eltdi (o'n oy eltdi) ko'rinishida bilgilar uchrashiga qarab, "d" harf belgisining yozilmay qolganini ilgari surishgan [Aydin, Alimov, Yildirim 2013, 86].

O'zbekchada "tug'ilmoq", ozarboyjonchada "do'g'ilmaq" deb qo'llanilayotgan fe'l bugungi turkiy tillarning bir nechasida "tug'moq" ko'rinishida ishlatilayotgani ko'zga tashlanadi: Onado'li turklarida "do'g'maq", qozoqcha, qirg'izcha va boshqa bir necha qipchoqcha negizli turk tillarida "tuvmaq". O'zbek tilida "tuqqanim", "tuqqanlarim" so'zlarida bu fe'lning eski turkchasi saqlangani kuzatiladi.

2. *"elimdä: tört: tegzindim: erdämim üçün: İnanchu Alp* – Elimda to'rt (tomoniga) tegdim (yetib bordim). Erdamim (er-yigitlik fazilatim) uchun. Inanchu Alp". Eski turkchada "el – el, o'lka, davlat" anglamida bo'lib, bu so'z ko'plab bitiktoshlardan o'rin olgan. Bu esa eski turk jamiyatida davlatchilik bilan bog'liq tushunchalar ardoqlangani, kishilar "el"ga uyushish, "elga tapug' ko'rsatish" – xizmat qilishni buyuk ish deb bilganliklarini ko'rsatadi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, bitiktoshlarning bosim ko'pchiligida "el erdami" so'zi uchrab, uning so'zlik angلامي "er-yigitlik fazilati"dir. Er erdamini qozonish uchun uchun jamiyatda ezgu ishlari bilan tanilish, ov va savashlarda alpik – qahramonlik ko'rsatish buyuk ish deb bilingan.

"To'rt tegzindim" so'z birikmasidagi "tegzin- " fe'li bir necha turkiy tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida "tegmoq" (bir narsaning boshqa bir narsaga borib tegishi, yetib borish, teginmoq") angamlarida saqlanib qolgan. "Devonu lug'atit-turk"da "tegmäk; tegdi: *ul evgä tegdi* – u uyga yetdi" deb ochiqqlanadi [Кошфарий 1963, II, 27]. Demak, Oltinko'l bitiktoshida "elimda to'rt tegzindim" deyish orqali bitiktosh o'rnatilgan kishi – Inanchu Alpning "er-yigitlik fazilatini" ko'rsatish uchun "o'lkaning to'rt tomoniga yetib borib, ko'rib qaytganligi"ga urg'u berilgan. Inanch Alp atoqli ot bo'lib, eski turkchada "inanchu – inonchli" anglamiga ega boshqaruvdagi kishilarning unvoni bo'lgan.

3. *"erdäm[lig] bulsar: bodun: esirkäyü ermädi: erinçim: ekizim-ä* – erdamlik topsa buduni uni esirgamadi (asray olmadi). Qanday achchiq! Egizim-a".

𐰃𐰪𐰇𐰝𐰚𐰚𐰚 harf birikmasini *erdäm[lig] bulsar* "erdamli bo'lsa" deb emas, *erdäm[lig] bulsar* "erdamlik topsa"

deb o'qigan E. Aydin bu so'zga "erdamlilik bo'lsa" deb qaraladigan bo'lsa, keyingi so'zlar bilan bog'liqlik yo'qolishi, ma'no – anglam chiqmasligiga urg'u beradi [Aydin, Alimov, Yildirim 2013, 86]. Eski turkcha "bulmaq" fe'li "bo'lmoq" fe'lidan butunlay boshqa so'zga – "topmoq"ga borib taqalib, O'rxun bitiktoshlaridagi "Tangrida bulmish Turk Bilga-qag'an" so'zlarida bu so'z "Tangridan (qut) topgan" anglamida keladi. "Devonu lug'atit-turk"da "bulmaq: buldī – topdi: *ul yarmaq buldī* – u tanga topdi" deb ochiqalanadi [КошҒарий 1963, II, 30]. Bugungi kunda turkiy tillarning ko'pchiligida unutilgan bu so'z Onado'li turkchasida "*bulmaq* – topmoq" ko'rinishida saqlanib qolgan.

"Esirkayu" so'zi esa "asramoq" anglamida bo'lib, Onado'li turkchasi, qozoqcha va ayrim o'zbek shevalarida "*esirgāmāk* – asramoq, qo'rimoq" anglamida uchraydi. Uning ming yillar oldingi ko'rinishi bo'lmish "esirkāmāk" "Devonu lug'atit-turk"da quyidagicha ochiqalanadi: "esirkāmāk; esirkādi: *ul esirkādi neḥni* – u bir narsaning yo'qolishiga achindi va afsuslandi" [КошҒарий 1960, 298].

Keyingisi – "*ermādi*" so'zi eski turkcha "emāk" (emoq, bo'lmoq) fe'lining bo'lishsiz shakli bilan tenglashtiriladi. Undan keyingisi "erinchim" so'zini E. Aydin va boshqalar O'rxun bitiktoshlaridagi "*erinch* – shubhasiz, ehtimol, chamasi" so'zi bilan tenglashtirishgan [Aydin, Alimov, Yildirim 2013, 86]. "Devonu lug'atit turk"da quyidagicha ochiqalama uchraydi: «*erinch* – ehtimol, zora, balki: *ul keldi erinch* – balki u kelgandir. U kelgan chiqar; *erinch / irinch* – maishat bilan kun kechirish. Yaxshi turish. Ba'zi lahjalarda ikki maxraj orasida j bilan *erinj* deb ataladi" [КошҒарий 1960, 152]. Bu so'z bo'yicha bildirilgan qarashlar o'zining to'laqonli yechimini topmagan. Ketma-ket kelgan "*esirkamoq* – achinmoq, asramoq", "*erinch* – shubhasiz / maishat bilan kun kechirish (farovonlik)" orasida qandaydir bir yaqinlik borligi ko'zga tashlanadi.

So'nggi so'z – *ekizim* (ekizim)ni "egizim, egizagim" anglamidagi eski turkcha so'z bilan tenglashtirish o'zini anchagina oqlaydi. O'rxun-Enasoy bitiktoshlarining ko'pchiligida esdalik toshi egasi (marhum) tilidan "so'z so'ylanib", ko'pincha uning tug'ishganlari – og'a-inilari bot-bot eslatilishi ko'zda tutiladigan bo'lsa, bu so'zni "egizim" deb ochiqlash to'g'riga o'xshaydi. Bu so'z "*ekizim-ä* – egizim-a!" ko'rinishida "-a" undov so'z qo'shib yozilishida ham turkiy el-uluslarda bundan ming yillar ilgari keng tarqalgan inja tuyg'ular bilan bog'liqliqni ko'ramiz. Yaqin qarindoshlaridan ayrilganda eng ko'p aytiladigan bu undov so'z turkiylarning ko'pchiligida bugungacha saqlanib qolgan. O'rnak keltiradigan bo'lsak, o'zbeklarda

aza chog'ida "otam-a", "onam-a", "akam-a", "akamov" deb yig'lash an'anasi haligacha keng uchraydi.

4 "erdäm b[ol]sar: bodunuğ: erk: bodunuğ: atim: erän uluğ erdämg : batur men – Erdam bo'lsa budun (ham) kuchli budun (bo'lur). Otim Eran, Ulug' erdamlik (fazilatli) Botur men".

Bu yerda erdam (fazilat) bo'lgandagina budun erkli, kuchli bo'lishiga urg'u berilayapti. O'rxun bitiktoshlaridan anglashilicha, o'sha kezlarda "erk" so'zi "erk, kuch-qudrat", "erklig – kuch-qudratga ega, qodir" angamlarida qo'llanilgan [User 2009, 173]. Undan keyingi so'z birikmasidagi "erän" so'zi O'rxun bitiktoshlarida "kishilar, erkaklar; askarlar" anglamida kelgan bo'lsa-da, uning Onado'li turkchasi va o'zbekchadagi "eran" (avliyo)ga yaqin anglami ham bo'lgani anglashiladi. "Devonu lug'atit-turk"da "erän – er, erkak. Bu so'zni ko'plikda ئىش shaklida ham qo'llaydilar. Lekin bu hol kam uchraydi va qoidaga xilofdir. Chunki ko'plik qo'shimchasini (aslida) لار / lār tarzidadir" deb ochiqlanishi bilan birga "askar" anglami ham keltirib o'tiladi [Кошғарий 1960, 71, 165].

5. "quyda qadaşima: qunçuyuma: adrilu: bardim: män: oğlumqa: bodunumqa: bökmädim – Qishloqda qarindoshimdan, xotinimdan ayrildim men. O'g'illarimga (bolalarimga), budunimga bo'kmadim (to'ymadim)".

Bugungi kunda "quy" so'zi ko'pchilik turkiy tillarda unutilgan bo'lib, "Devonu lug'atit-turk"da "quy – vodiyning tekislik joyi" deb keltiriladi [Кошғарий 1963, III, 153]. Onado'li turkchasida bu so'z shunga yaqin anglamda saqlanib qolgan. "Qadash" so'zi esa "qarindosh, qarindosh-urug'" anglamida bo'lib, Mahmud Koshg'ariy "birodar, yaqinga "qadash" deyiladi; asli idish ma'nosidagi "qa"dir. Unga "dash" qo'shilgach, bir idish bir (bir qorin)dosh ma'nosini anglatadi", "qadashliq – birodarlik, yaqinlik" deb yozadi [Кошғарий 1960, 386, 462]. Undan keyingi "qunchuy" so'zi Turk xoqonligi boshqaruvi chog'ida "xoqon qizi va qiz qarindoshlari, singillari" uchun qo'llanilgan xitoychadan o'zlashgan atamadir [User 2009, 265]. "Devonu lug'atit-turk"da "qunchuy – sayyida xotin. U "xotun"dan bir daraja tubandir, qatun qunchuy deyish shundandir" deb ochiqlanadi [Кошғарий 1963, III, 258].

Bitiktoshdagi "o'g'limqa" so'zini ko'pchilik izlanuvchilar "o'g'limga" deb o'girishgan. Eski turklarda birlik son ko'pincha ko'plik son o'rnida qo'llanilganidan kelib chiqib, bu so'zni "o'g'illarimga" deb o'girish to'g'riroq.

Oltinko'l bitiktoshlarida va O'rxun-Enasoy bitiktoshlarining ko'pchiligida uchraydigan "bo'kmädim" so'zi "bo'kmäk – to'ymoq,

to'lmoq" angamlarida kelib, ko'chma ma'noda "diydoriga to'ymoq" o'laroq ham qo'llanilgan. "Devonu lug'atit-turk"da "bo'kmäk; bo'kdi: *ul ashdin bo'kdi* – u oshdan bo'karlik darajada to'ydi" deb keltiriladi [Кошғарий 1963, II, 27]. Bugungi kunda turkiy tillar orasida ko'proq o'zbekchada saqlanib qolgan bu fe'l "*bo'kmoq* - yemakdan o'ta to'yib qolmoq" anglamida ishlatiladi [O'TIL 2006, 406].

6. "*säkiz qirq: yaşıma* – o'ttiz sakkiz yoshimda".

Eski turk sanoq tizimi bo'yicha o'nlik sonidan keyingi sanoqlar Mahmud Koshg'ariy chog'idan va bugungidan boshqacharoq qo'llanilgan. 38 yoshda demoqchi bo'lsa "sakkiz qirq" deyilib, shu yo'sinda $30 + 8 = 38$ yasalgan.

7. "*er erdäm üçün töpüt qanqa: yalabaç: bardim: kelmädim* – Er (yigitlik) erdami uchun Tibet xoniga yalavoch (elchi) bo'lib bordim, (qaytib) kelmadim".

Eski turkchada Tibet o'lkasi "To'put" deb aytilgan. Tilimizdagi "*tivit, tibit* – echki yungi" so'zi ham shu so'zga yaqin keladi. "Yalabach" so'zi "yalavoch" so'zining eng eski ko'rinishi bo'lib, negizi eski turkcha "yal – yol, tug" so'ziga borib taqaladi degan qarashlar bor.

8. «*er erdäm bolsar: andağ ermiş: esin<i> men: altun qapir[çaqqa kir]tim* – Er (yigitlik) erdami bo'lsa andoq emish. (Qanday) achchiq! Men oltin qabirchoqqa (tobutga) kirdim (qaytish bo'ldim)".

Boshqalari yuqorida ko'rib chiqilgani uchun bu yerda 2ta so'z – *esin<i>* va *qapir[çaq]* so'zlariga to'xtalamiz. I. V. Kormushin birinchi so'zni "esin" deb o'qib, uni eski turkcha "esän" (eson, sog') deb ochiqlagan bo'lsa [Кормушин 1997, 72], E. Aydin "ne aji (qanday achchiq, alam)" deb o'girgan [Aydin, Alimov, Yıldırım 2013, 87]. Bu so'zni bitiktoshlarda "esiz" (afsus) anglamida ko'p uchraydigan "esiz" so'zi bilan bog'lash to'g'riroqqa o'xshaydi. Qirg'iz turk tilbilimchisi R. Alimov O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida ko'p uchraydigan "esiz" so'zi bugungi turkiy tillar ichida ko'proq o'zbek tilida uchrashiga urg'u beradi. U Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk"ida "*esiz* – so'zga kirmaydigan sho'x bola", "*esiz* – biror yo'qotishning orqasidan qayg'urishni anglatadigan so'z" degan angلامي ham, bitiktoshlardagi "afsus"ga to'g'ri keladigan ko'rinishlari ham o'zbekchada yaxshi saqlanganinini aytib o'tadi [Alimov 2013, 17 – 18]. Talas bitigida bu so'zning ikkinchi angلامي o'rin olgan bo'lib, Enasoy bitiklarining ko'pchiligida shunday undov-o'kunch so'zlar ko'p qaytalanadi.

Ayrim harf belgilari o'chib ketgan ikkinchi so'zni E. Aydin va boshqalar "*qapir[çaq]* – tobut" deb o'girishgan. "Devonu lug'atit-turk"da "*qabirchaq* – sandiq, tobut" deb ochiqlanadi [Кошғарий

1960, 460]. I.V. Kormushin va boshqalar "Oltin Qapar..." deb o'qib, biror yer oti bo'lsa kerak deb qarashgan [Кормушин 1997, 72].

Xulosa

Enasoy bitiktoshlari orasida ayrim-ayrim o'rin tutadigan Oltinko'l bitiktoshlari eski turk jamiyatining ayrim tomonlari bo'yicha qiziqarli bilgi – ma'lumotlar beradi. Ularga birgina turk tillari manbasi o'laroq emas, o'sha kezlardagi kishilar hayoti, turmush yo'sini, urf-odatlar, an'analar to'g'risida ham birlamchi bilgilar beruvchi yodgorliklar deb qaralsa to'g'riroq bo'ladi. Har ikki bitiktoshda uchraydigan ayri-ayri so'zlarning yalpi soni 140tacha. Ularning ko'pchiligi bugungi turkiy tillarda, ayniqsa, o'zbek tilida shu va shunga yaqin anglam – ma'nolarda saqlanib qolgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan har ikki Oltinko'l bitiktoshidagi so'zlarning 90% ga yaqini o'zbek tilida saqlanib qolgan va ularning ko'pchiligi ham anglam (ma'no), ham qo'llanilishi (talaffuzi) bo'yicha bugungi kunda ham ishlatilayotgan so'zlar bilan yaqin o'xshashlikka ega. Buning negizida adabiy o'zbekcha bir tomondan, O'rxun-Enasoy bitiklari yozilgan eski turkchaning yaqin tarmog'i bo'lmish qarluqchanning davomchisi ekani yotsa, boshqa tomondan esa turk tillarining yirik tarmoqlari bo'lmish o'g'uz va qipchoqcha o'zbek tilining yuzaga kelishida o'z ulushini qo'shgani bilan bog'liqdir.

Adabiyotlar

- Абдурахмонов, Ғ., ва А. Рустамов. 1982. *Қадимги туркий тил.* Тошкент: Ўқитувчи.
- Alimov, R. 2013. "Eski Türk Runik Metinlerindeki Eszı Üzerine." *A.Ü. Türkiyat Enstitüsü Dergisi (TAED)* 49: 17–38.
- Aydın, E., R. Alimov, and F. Yıldırım. 2013. *Yenisey-Kırgızistan Yazıtları ve İrk Bitig.* Ankara: BilgeSu.
- Древнетюркский словарь. 1969. Под ред. В. М. Наделяева, Д. М. Насилова, Э. Р. Тенишева и А. М. Щербака. Ленинград: Наука.
- Кормушин, И. В. 1997. *Тюркские енисейские эпиграфики. Текст и исследования.* Москва: Наука.
- Кызласов, И. Л. 1994. *Рунические письменности евразийских степей.* Москва: Восточная литература.
- Маҳмуд Кошғарий. 1960. *Туркий сўзлар девони (Девону луғат ит-турк).* Т. 1. Тошкент: Фан.
- Маҳмуд Кошғарий. 1963. *Туркий сўзлар девони (Девону луғат ит-турк).* Т. 2. Тошкент: Фан.
- Маҳмуд Кошғарий. 1963. *Туркий сўзлар девони (Девону луғат ит-турк).* Т. 3. Тошкент: Фан.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2006. Ҳарф О. А. Мадвалиев таҳрири

- остида. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2008. Ҳарф С. А. Мадвалиев таҳрири
остида. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2008. Ҳарф Т. А. Мадвалиев таҳрири
остида. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
User, H. Ş. 2009. *Köktürk Ötüken Uygur Kağanlığı Yazıtları: Söz Varlığı
İncelemesi*. Konya: Kömen Yayınları.

The Altin-Köl Runic Inscriptions: the State of Preservation of Old Turkic Words in the Uzbek Language

Gaybulla Boboyorov¹

Abstract

Today, as one of the most widely spoken languages among the over 30 Turkic languages, Uzbek is considered one of the direct successors of the Old Turkic language found in the Orkhon-Yenisei inscriptions. While on one hand the Uzbek language is a successor of the ancient written Turkic language, on the other hand, it is known as a language that unites the three major branches of the Turkic languages – Karluk, Kipchak, and Oghuz. The fact that the majority of words found in the ancient Turkic inscriptions written almost one and a half thousand years ago are still preserved in modern Uzbek is not a coincidence; this situation is directly related to the above-mentioned unique characteristics of the Uzbek language. This is also clearly demonstrated by the fact that most of the words found in the language of the inscriptions discovered along the banks of the Enasay (Yenisei) River have been preserved in Uzbek

Key words: *Old Turkic language, Uzbek language, Orkhon inscriptions, Yenisei (Enasay) inscriptions, runic stone, Altin-Köl.*

References

- Abdurahmonov, G', va A. Rustamov. 1982. *Qadimgi turkiy til*. Toshkent: O'qituvchi.
Alimov, R. 2013. "Eski Türk Runik Metinlerindeki Eszı Üzerine." *A.Ü.*

¹ G'aybulla B. Boboyorov – Doctor of Historical Sciences, Professor, Institute of Anthropology of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

E-mail: gaybullah@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-3456-3410

For citation: Boboyorov, G. B. 2026. "The Altin-Köl Inscription Steles: the State of Preservation of Old Turkic Words in the Uzbek Language". *Golden Scripts* 1: 94 – 113.

Türkiyat Enstitüsü Dergisi (TAED) 49: 17–38.

Aydın, E., R. Alimov, and F. Yıldırım. 2013. *Yenisey–Kırgızistan Yazıtları ve Irk Bitig*. Ankara: BilgeSu.

Drevnetyurkskiy slovar. 1969. Pod red. V. M. Nadelyaeva, D. M. Nasilova, E. R. Tenisheva i A. M. Sherbaka. Leningrad: Nauka.

Kormushin, I. V. 1997. *Tyurkskie yeniseyskie epitafii. Tekst i issledovaniya*. Moskva: Nauka.

Kizlasov, I. L. 1994. *Runicheskie pismennosti yevraziyskix stepey*. Moskva: Vostochnaya literatura.

Mahmud Koshg'ariy. 1960. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'at it-turk)*. T. 1. Toshkent: Fan.

Mahmud Koshg'ariy. 1963. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'at it-turk)*. T. 2. Toshkent: Fan.

Mahmud Koshg'ariy. 1963. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'at it-turk)*. T. 3. Toshkent: Fan.

O'zbek tilining izohli lug'ati. 2006. Harf O. A. Madvaliev tahriri ostida. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

O'zbek tilining izohli lug'ati. 2008. Harf S. A. Madvaliev tahriri ostida. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

O'zbek tilining izohli lug'ati. 2008. Harf T. A. Madvaliev tahriri ostida. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

User, H. Ş. 2009. *Köktürk Ötüken Uygur Kağanlığı Yazıtları: Söz Varlığı İncelemesi*. Konya: Kömen Yayınları.